



O'ZBEK MUMTOZ EPIK ADABIYOTI
TADQIQOTCHISI

Xasanova Dilshoda

Sh.Rashidov nomidagi

SamDU tadqiqotchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8112099>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2023

Accepted: 29th June 2023

Online: 30th June 2023

KEY WORDS

Mumtoz adabiyot, sharqona an'analar, epik she'riyat, Boturxon Valixo'jaev, adabiy janr va shakllar, mazmun va mohiyat.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqola o'zbek adabiyotshunosligining alloma vakili, taniqli mumtoz olim Boturxon Valixo'jaev ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda olimning o'zbek epik she'riyati (poeziya) tarixi haqidagi qarashlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, doston va poema, nazira va ijodiy tarjima, epik va lirik she'riyat, an'ana va yangilik kabi masalalar haqidagi fikrlari qiyosiy tahlil etiladi.

Sharq adabiyotshunoslik ilmi tarixida so'zshunoslik, so'z nafosati qirralarini yoritishga qaratilgan "ilmi balog'a", "ilmi fasohat", "ilmi bade'", "ilmi aruz", "ilmi qofiya" singari soha va yo'nalishlar qadimiy, izchil an'analarga ega. Mazkur sohaning har tomonlama rivojida Samarqand adabiy muhitining ham ulkan hissasi bor. Jumladan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma' un-navodir", Shayx Xudoydodi Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a", Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro", Muhammad Bade' Maleho Samarqandiyning "Muzakkiri as'hob" kabi ko'plab nodir manbalar bu zaminda hozirgi adabiyotshunoslik fanining ilk irmoqlari uzoq asrlardan beri kamol topib kelayotganini tasdiqlaydi. Ushbu an'analar adabiyotshunoslik alohida fan sifatida shakllangan davrlarda, ya'ni XX asrda ham izchil davom ettirildi. Bu davrda Samarqand adabiyotshunoslik ilmining tamal toshini qo'ygan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy, Olim Sharafiddinov, Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Vohid Abdullaev kabi olimlar ilmiy ijodiy faoliyatining munosib davomchisi Boturxon Valixo'jaevdir.

Ustozlari, zamondoshlari ilmu ziyosidan bahramand bo'lgan va shu asosda faoliyat olib borgan Boturxon Valixo'jaev adabiyotshunoslik ilmida muammo bo'lib kelayotgan o'zbek dostonlari tarixiga nazar tashlashni o'z olimlik burchi deb bildi. Arab, rus, fors-tojik, turk tilini mukammal o'zlashtirgan olim uzoq mashaqqatli mehnatlari samarasi ularoq 1968 yilda "O'zbek epik poeziyaning taraqqiyoti tarixidan" mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Mazkur tadqiqot V.Abdullaevning ilmiy maslahatlari bilan amalga oshdi. O'zbek adabiyotshunosligida epik she'riyatning yaxlit hodisa sifatida keng qamrovda ilk bora o'rganilishi natijasida janr va uslub rang-barangligi, dostonnavislikning shakllanishi va taraqqiyot etaplari, an'ana va novatorlik, xususan, badiiy tarjima va nazira an'alarining qorishib ketishi kabi masalalarning ilmiy xulosalari, mantiqiy asoslari ochib beriladi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb mavzusiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot juz'iy kamchiliklari



bartaraf etilib, to'ldirilgan holda 1974 yilda "O'zbek epik poeziyasi tarixidan" nomi bilan monografik ko'rinishda chop etiladi. Monografiyada o'zbek epik poeziyasining janr xususiyatlari va ularning adabiy-estetik talablar asosida o'zgarishi, epik poeziya taraqqiyotining bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, janrlar tasnifi, genezisi va taraqqiyoti, janriy o'ziga xosliklari, manbalari, uning turkiy, fors-tojik, hind, arab xalqlari yozma adabiyoti hamda xalq og'zaki njodi bilan yaqin munosabati, bog'liqlik tomonlari epik poeziya taraqqiyotidagi milliy va g'oyaviy kurash kabi masalalar yoritiladi. Ko'p yillik izlanishlar davomida Boturxon Valixo'jaev dostonlar tarixini eng qadimgi davrlar, ya'ni "O'rxun-Enasoy obidalaridan", "Devonu lug'otit turk" va fors-tojik tilidagi manbalaridan izlaydi, janr asoslarini sinchiklab tekshiradi va ishonch hosil qilgandagina uning ilmiy izohlarini keltiradi. "Turkiy xalqlarning qadimiy adabiyotida epik poeziya yetuk, o'tkinch, sov nomlari bilan atalgan va ular ham o'z navbatida, turli xarakterga ega bo'lgan, jumladan, qahramonlik sovlari, maishiy va didaktik sovlar. Bu sov, etuk va utkunchlar turkiy xalqlarni qadimiy adabiyotida keng qo'llanilgan to'rtliklar formasida yozilib, xalq og'zaki ijodidagi badiiy tasvir vositalari asosida yaratilgan. Turkiy xalqlarning qadimiy epik poeziyasi esa bizgacha juda kam yetib kelganligi tufayli ular to'g'risida batafsil ma'lumotga ega emasmiz"¹. Mazkur fikrlar ko'rsatadiki, o'zbek xalqi tarixi juda qadimiy madaniyatga, jumladan, adabiy-badiiy manbalarga boyligi olim tomonidan e'tirof etiladi. Adabiy janrlar arab, fors-tojik adabiyotidan emas, balki turkiy xalqlarning o'zida mavjud manbalardan izlanganligi va uning isboti sifatida "Devoni lug'otit turk" asaridan janr nomlari keltirilganligi, ularning o'ziga xos tasniflari, badiiy tasvir vositalariga boyligi haqidagi fikrlar tadqiqotning ilmiyligini oshiradi. Olim VIII asrdan so'ng arablar bosqini tufayli epik poeziyaning janriy va shakl xususiyatlariga arab va fors-tojik adabiyotlari ta'siri yaqqol sezilsa-da, ammo turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi poeziyasining o'ziga xos xususiyatlari saqlanib qolganligini yozadi. Bu bilan tadqiqotchi o'zbek xalq dostonlarining asosi mustahkam ekanligiga urg'u beradi. Shu kabi Boturxon Valixo'jaev she'riy shaklda yozilib "noma" so'zi bilan belgilanadigan har qanday asarni bir qolip bilan o'lchash mumkin emasligini yozadi va bunga bir qator misollar keltiradi. Firdavsiy "Shohnoma", Xiromiy "To'tinoma", Nizomiy Ganjaviy "Iskandarnoma", Muhammad Solih "Shayboniynoma", Avhadiy "Dahnoma", Xorazmiy "Muhabbatnoma", Xo'jandiy "Latofatnoma", Amiriy "Dahnoma", Said Ahmad "Taashshuqnoma", Xatoni "Dahnoma", Muqimiy va Zavqiyning "Sayohatnoma"lari noma so'zi bilan tugallanishi bilan ularning hammasi bir xil xarakterdagi badiiyat namunalari, g'oyaviy va janriy nuqtai nazaridan bir xil yo'nalish va xususiyatdagi asarlar emasligini kitobxonga eslatib o'tadi. Shundan so'ng esa asl maqsadga, ya'ni epik poemalarga har tomonlama chuqur yondashadi. Shu o'rinda bir masalaga aniqlik kiritib ketish lozim bo'ladi. Olim "doston" atamasi o'rnida davr mafkurasi nuqtai nazaridan "poema" atamasini qo'llaydi. Bu kabi yondashuv keyingi yillarda o'zining mukammal variantini topdi. Masalan, "Adabiy turlar va janrlar" monografiyasida mualliflar B.Valixo'jaev asariga murojaat qilishadi: "...Epik poeziya o'zbek va qardosh xalqlar adabiyoti tarixida turli terminlar bilan ifodalanib kelgan bo'lsa-da, ammo ulardan doston va masnaviylar poema ma'nosida XI asrlardan so'ng keng qo'llanilgan"². Bugungi adabiy jarayonda esa "poema"

¹ Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Т. Фан. 1974. 8-б.

² Валихўжаев Б... 27-б.



termini bilan bir qatorda “doston” termini ham ishlatilayotir”³, - deb qo‘shimcha qiladilar. Dostonlar tadqiqotchisi Shavkat Hasanov “Davr va doston” monografiyasida “Doston” atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan faol ishlatila boshlaganini, bugungi kunda “poema” o‘z o‘rnini “doston” terminiga to‘la bo‘shatib berganligini yozadi hamda “Dostonchilik borasida olib borilgan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda “epik doston” atamasi tez-tez uchrab turadi. Doston deyildimi, unda epiklik mavjud, degan xulosa kelib chiqadi”⁴, - degan muhim farazni ilgari suradi. Ko‘rinadiki, Boturxon Valixo‘jaev tadqiqotlaridagi “epik poeziya” dostonni yoxud poemani emas, balki she‘riy yo‘lda yozilgan nomalar, dostonlar, she‘riy hikoyalar va boshqa ko‘rinishdagi voqeaband she‘rlarga nisbatan aytiladi. E‘tiborli tomoni mazkur qarashlar bugungi adabiyotshunoslik yutuqlari o‘lchovi bilan qaralganda ham ilmiy qimmatini aslo yo‘qotgan emas. Atoqli olim B.Valixo‘jaev “noma” janrini uchga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: 1. epik poemalar va she‘riy hikoyalar sikli ma‘nosida. 2. masnaviy poema ma‘nosida. 3. she‘riy maktub formasida yozilgan asar ma‘nosida. 4. sayohatdan olingan xotiralarni she‘riy tarzda ifoda etish tarzida. Gap shundaki, mazkur tasniflashning birinchisida “Xamsa” dostonlarining yaratilishiga asos bo‘lgan janrlar haqida so‘z boradi. Olim fikricha, “Xamsa” dostonlarining yaratilishiga Firdavsiyning “Shohnoma”si bilan bir qatorda har xil turdagi poemalarning yuzaga kelishi ham sabab bo‘lgan. Undan tashqari xalq og‘zaki ijodi namunalarning o‘rnini ham unutmaslik kerak. Masalan, “Turkiy xalqlar og‘zaki ijodiyotida ham dostonlar siklidan tashkil topgan asarlar mavjud edi. Ana shunday asarlardan biri turkiy xalqlar o‘rtasida keng shuhrat qozongan «Kitobi dada Ko‘rqud»dir. O‘g‘iz qahramonlik eposining eng yaxshi namunalaridan bo‘lgan bu asar qadimiy davrlarda shakllana borib, mukammallashgandir”⁵. Bu kitobdan Nizomiy Ganjaviy ta’sirlanganini yozadi. Nomaning masnaviy ma‘nosida esa “noma” masnaviy poema ma‘nosini anglatib kelganligini aytadi. Bu asarlar mustaqil syujet chizig‘i obrazlar sistemasi va badiiy xususiyatlarga egaligini aytadi va ularga misol sifatida «Iskandarnoma» (Nizomiy), «Shayboniynoma» (Muhammad Solih) asarlarini keltiradi. Nomaning she‘riy maktub shakliga esa Xorazmiy asari haqida fikr yuritadi. Olim o‘zbek mumtoz adabiyotida noma janrida birinchilardan bo‘lib Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari yozilganligini qayd etarkan, shoirning bunday asar yozishga undagan jarayonni tekshirishga harakat qiladi va shu bilan birga o‘zidan oldin yozilgan asarlarga o‘xshash jihatlarini sanab o‘tadi, ularning kompozitsion jihatlarini ilmiy ravishda tekshiradi. Olim A.Shcherbak qarashlariga jiddiy e‘tiroz bildiradi. Avhadiyning “Dahnoma” asariga hikoya qilish tarzi yaqinligini aytadi. Biroq Xorazmiyning asari original asar ekanligini, Xoja Imod va Avhadiyning asaridan ko‘ra badiiy mukammal ekanini xolis va reallik bilan baholaydi. Bu jihatdan olimning “Xorazmiy o‘zidan oldin yaratilgan nomalarning xususiyatlarini aynan takrorlamaydi, balki unga ajoyib bir yangilik kiritadi. Bu yangilik shundan iboratki, muallif o‘z asarini shiru shakarning o‘ziga xos ko‘rinishida, ya’ni eski o‘zbek va fors-tojik tillarida yaratadi. Natijada, “Muhabbatnoma” oldingi poemalardan ajralib turadi va o‘zbek adabiyotidagi zullisonaynlik an‘anasi tarixini qadimiylashtiradi. Ikkinchidan esa Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si o‘n bir nomadan iborat. Vaholanki, Avhadiyniig ham, xoja Imodning ham asarlari o‘n nomadan tashkil topgan edi”, - degan fikri e‘tiborni tortadi.

³ Адабий турлар ва жанрлар. Т. Фан. 1991. 175-б.

⁴ Ҳасанов Ш. Давр ва дoston. Т. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2003. 126-б.

⁵ Ўша китоб...10-б.



Ma'lumki, nomaning sayohatlardan olingan namunarlari Alisher Navoiyning "hasbi hol" nomli masnaviysida mavjud. Chunki Alisher Navoiy bu asarida o'zining Samarqandga kelgani va undan olgan taassurotlarini bayon etib, go'yo sayohati haqida so'zlaydi. Undan tashqari Furqat, Muqimiy, Zavqiy sayohatlarini misol keltiradi. Uning o'ziga xoslik jihatlarini ko'rsatadi.

Adabiyotshunos masnaviyni poema sifatida qo'llaganda ko'pgina kichik manzum hikoyalar, she'riy nomalarni emas (garchi ular masnaviy tarzda qofiyalanib kelsa ham), balki hajman katta asarlarni ko'zda tutgan hamda o'shalarni poema deb atashga jazm etgan. Bunday qarashlar asrlar oshib ham olim nazarda tutgan janr – doston (poema) deb atalmoqda.

B.Valixo'jaev "doston" atamasiga ham to'xtaladi. Albatta, adabiyotshunos sho'rolar davri talablaridan, sotsialistik realizm qoliplaridan chiqib keta olmaydi. U "doston" atamasi tarixiga to'g'ri, haqqoniy yondashsa-da, rus tili orqali o'tib kelgan poema terminini mutlaqlashtirish maqsadida xalq og'zaki ijodi janri bo'lmish "doston" terminini poema janri talablarini o'zida mujassam eta olmaydi, degan qarashni ilgari so'radi. "Adabiy termin sifatida yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodidagi katta hajmga ega bo'lgan epik asarlar doston deb tushunilgan. Ammo yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodidagi dostonlar shakl jihatdan, voqea-hodisaning tasviri nuqtai nazaridan bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbek, ozarbayjon, turkman xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lmish dostonlar ko'pincha nasr va nazm bilan yoziladi". Quyidagi ma'lumotlardan esa kitobxon, tadqiqotchilar qadimgi dostonlar kompozitsiyasiga oid bir qancha muhim masalalarni bilib olishadi. O'zbek adabiyotiga xos bo'lgan xususiyat, ya'ni dostonlarning qofiyalanishi tartibi to'rtliklar (murabba) shaklida bo'lishligi, masnaviy shaklidagi ko'rinishlar esa arablar bosqinidan keyingi o'zgarishlar natijasi ekanligi, buning yaqqol misoli sifatida Axmad Yugnakiyning "Hibat ul haqoyiq" asari mavjudligi tadqiqotchi olimlarga yangilik bo'lib tuyuladi. Haqiqatan ham, xalq dostonlari ham, ayrim XX asrda yozilgan dostonlar ham to'rtliklar ko'rinishda yozilgan. "Yozma adabiyotdagi doston esa folklor mahsuli bo'lgan dostonlardan shu bilan farq qiladiki, u boshdan oxirigacha nazm bilan yozilib, bir xil qofiyalanish sistemasiga ega. Bu qofiyalanish sistemasi esa Sharq poetikasida muzdavij yoki masnaviy deb ataladi. Masnaviy tarzida qofiyalash sistemasi VIII asrdan keyin, ya'ni O'rta Osiyoga arablar hukmroiligi o'rnatilgandan so'nggina keng ko'lamda tarqaldi. Undan oldingi davrlarda yaratilgan dostonlar esa to'rtliklar tarzida qofiyalanib kelgan. Dostonlarning bu tarzda qofiyalanishi keyingi asrlarda, xususan, XIX asrda yaratilgan dostonlarda ham (1901 yilda Qozonda nashr ettirilgan "Kitobi hazrati Yusuf alayhissalom" dostoni) uchraydi. Ammo o'zbek yozma adabiyotining (ayrim namunalarini, jumladan, Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asarini hisobga olmaganda, chunki bu asar asosan to'rtliklar – murabba' tarzida qofiyalanib, turk xalqlarining bu sohadagi qadimiy an'anasini davom ettirgan) XI-XIX asrlar mobaynidagi tarixida masnaviy tarzida qofiyalanish barcha dostonlarning xususiyati bo'lib qolgan edi". "Poemaning mazmun jihatdan taraqqiyot bosqichlari har bir ijtimoiy-siyosiy va madaniy davrning, shu davrlardagi falsafiy va estetik prinsiplarning, eng muhimi xalq ongi, bilimi va tajribasining talablari va qonuniyatlariga bog'liqdir. Har bir ijtimoiy muhit ideologiyaning turli formalari qatori badiiy adabiyot oldiga ham o'z talablarini qo'yadi va davrning muhim problemalarini hal qilish, uni badiny tarzda gavdalantirib berishnn taqozo qiladi. Shuning natijasida adabiyot badiiy ijodiyotning hayotni obrazlar orqali tasvirlash qonun-qoidalari asosida davrning talabini amalga oshirish uchun



intiladi, o'sha problemalarni aks ettirish vositalarini topadi, uning qonuniyatlarini uyg'unlashtiradi va mukammallashtira boradi. Shu nuqtai nazardan o'zbek poemachiligi taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Qadimiy davrlardan XI asrgacha.
2. XI asrdan XIV asrgacha.
3. XIV-XV asrlar.
4. XVI-XIX asrlar"⁶.

Bizning fikrimizcha, mazkur davrlashtirish adabiyotshunos olim tomonidan juda zukkolik bilan amalga oshirilgan, qadimiy manbalardan kelib chiqib xulosa qilingan. Xalq og'zaki ijodidan O'rxun-Enasoy bitiklari hamda Yusuf Xos Xojib va Ahmad Yugnakiygacha bo'lgan davrni poemachilikdagi shakllanish davri, ikkinchi davrda poemachilikda xarakterning kirib kelishi, mazmun va shakl jihatdan bir muncha boyiganligini hisobga olib ilk rivojlanish davri deb ataydi, uchinchi davrni rivojlanish va kamolat davri deb ataydi. Bu davr adabiyotiga Qutbning "Xisrav va Shirin", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Haydar Xorazmiyning "Maxzan-ul asror" asarlarini misol qilib keltiradi. Birgina Haydar Xorazmiy nomini, asar ("Maxzan-ul asror") muallifini aniqlash uchun o'ndan ortiq manbalarga suyanadi. Kitobxonda har tomonlama ishonch uyg'otgandagina o'zining shubhaga o'rin qoldirmaydigan, dalillangan ilmiy xulosalarini o'rtaga tashlaydi. Undan tashqari adabiyotshunos ilmiy tadqiqotini oddiy kitobxon uchun ham o'qimishli bo'lishini nazarda tutib bir qancha hikoyatlar, rivoyatlarni to'liq keltiradi. Ularning badiiy-estetik xususiyatlariga to'xtaladi. Shu jihatlari bilan ham monografiya badiiy asardek o'qiladi. Kitobxon ham nazariy, ham badiiy zavq oladi. Eng muhimi mazkur davrning kulminatsion nuqtasi sifatida Alisher Navoiyning "Xamsa" asari yaratilishiga doir ko'pchilik o'quvchilarga noma'lum bo'lgan qarashlarni o'rtaga tashlaydi. Shunday qilib, yuqorida ko'rib o'tganimiz kabi XV asr birinchi yarmida o'zbek epik poemachiligi shakl va mazmui jihatdan boyib, alohida-alohida poemalar bilan bir qatorda poemalar sikli – "Xamsa"ning maydonga kelishiga zamin yaratgan edi. "Xamsa"ning maydonga kelishi o'zbek epik poeziyasiiig mazmunan mukammallashtirganidai dalolat bersa, ikkinchidai poemachilikning shakl jihatdan ham mukammallashtirib, alohida poemalardan g'oyaviy-badiiy jihatdan o'zaro bog'langan poemalar sikliga o'tganidan guvohlik beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek epik poeziyasida "Xamsa"ning maydoiga kelishi qadimiy tarixga ega bo'lgan o'zbek poemachiligi taraqqiyotining qonuniy hodisasi bo'lib, uning amalga oshishiga Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan xamsachilik an'anasi vosita rolini o'ynadi, xolos. Xuddi shu davrda falsafiy masal-poemaning — "Lison-ut tayr"ning yaratilishi o'zbek poemachiligi janr va mazmun jihatdan nihoyatda o'sganligini yana bir karra isbot etadi.

Xullas, poemachilik taraqqiyotining yuqori bosqichi "Xamsa" gacha bo'lgan tadrijiy rivojlanishning har biri o'ziga xos xususiyat va fazilatlarga ega ekanligi B.Valixo'jaev tomonidan favqulodda bilimdonlik, zukkolik bilan ilmiy asosda o'rganiladi. Monografiyada "XIX asr o'zbek epnk poeziyasida traditsiya va novatorlik masalalari" ham yoritiladi. Mazkur muammo davr adabiy muhitida uslublar rang-barangligi bilan omuxta tarzda ko'rib chiqiladi. Olim bu davrni 1. Demokratik adabiyot. 2. Progressiv romantizm adabiyotlariga bo'lib

⁶ Ўша асар...28-б.



o'rganishni ma'qul ko'radi. Demokratik adabiyot qadimdan davom etgan progressiv adabiy yo'nalishning hayot hodisa-voqealarini realistik tasvirlashga bo'lgan intilishlari traditsiyasini davom ettirdi. Bu adabiyot XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy qarashlarda yuz bergan o'zgarishlarga o'z munosabatini bevosita bildirib, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarni realistik tarzda aks ettira borganligini yozadi. Demokratik adabiyotning xususiyatlaridan biri sifatida "ijobiy boshlanma", "ijobiy ideal" bilan bir qatorda, hayotga tanqidiy munosabat mavjudligini to'g'ri anglaydi. Bunday yo'nalish o'z-o'zidan ijtimoiy hayotga munosabatning ikki xil yo'nalishini, ya'ni uslubini yuzaga keltirganligini davr taqozosi deb tushunadi. "Bu uslublarning birinchisida o'sha davrdagi ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan yangiliklar madaniyat va maorif sohasidagp mo'jizalarni tasvirlash orqali tasdiqlanadi va ma'qullanadi. Feodal xonlik davridagi jaholatdan norozi bo'lish, nafratlanish va uni tanqid qilish kuchayadi".

Yuqorida qayd qilingan uslubning ikkinchisini esa jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlarning salbiy tomonlariga nisbatan bo'lgan norozilik, nafratning kuchli va o'tkir tasvirlanishida ko'radi. Bularga Furqat, Muqimiy, Zavqiylarni misol keltiradi. Adabiyotshunos qaysi mavzuda fikr yuritmasin, monografik planda o'rganilayotgan mavzu atrofida aylanadi. Katta, yirik hajmdagi poemalar(dostonlar)ning bu davrda yaratilmagani sabablarini quyidagicha tasvirlaydi. "Demokratik adabiyotning janrlarga munosabati haqida aytilgan fikrlarga qo'shimcha qilib, yana quyidagilarni aytish mumkinki, u o'zbek klassik adabiyotidagi hamma janrlardan foydalana olmagan edi. Jumladai, ko'p asrlik an'anaga ega bo'lgan masnaviy-poema janri bu davr demokratik adabiyoti vakillari tomonidan qo'llanilgan emas edi. Buning asosiy sababi shunda bo'lsa kerakki, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida sodir bo'layotgan yangiliklar tezda yoritishni talab qilardi. Buning uchun esa hajman katta janrlar emas, balki kichik janrlar qulay edi". Shuning uchun olim bu davrda yaratilgan she'riy ko'rinishdagi nomalar, hikoyalarni "manzum hikoyalar" yoki publitsistika ruhida yozilgan hikoyalar, deb nomlaydi. Muqimiyning bir qator masnaviy shaklidagi yozilgan ijtimoiy lirikasi, Furqatning masnaviy ko'rinishdagi publitsistik lirikasi olim qayd etgan nazariy qarashlarga to'g'ri keladi.

Adabiyotshunos qayd etishicha, romantik yo'nalishdagi adabiyotning o'ziga xosligi uning o'z g'oyalarini ifoda etishda lirik poeziyaning imkoniyatlari torligini anglab, ko'proq epik poeziyaga murojaat qilganligiga ilmiy asosda yondashadi. Shu bois ham ko'plab epik poemalar yaratilishiga romantik yo'nalishdagi adabiyotlar sabab bo'lganligi dalilini keltiradi. Olim "romantik adabiy yo'nalish yaratgan poemalar ko'piicha xalq ogzaki njodn yoki klassik adabiyotda mavjud bo'lgan temalarda yaratnldi. Ba'zan esa bu poemalar fors-tojik, hind, ozarboyjon xalqlari adabiyotidagi masriy va nazmiy poema yoki kissalarni poema sifatida, ayrim hollarda esa iasr yo'li bilan o'zbek tiliga tarjpmasi sifatida maydonga keldi. Bu tarjimalar originalning aynan tarjimasi emas, balki ijodiy xarakterda edi", - degan xulosa bilan aniqlik kiritadi. Olim nazarida, tarjima asarlar to'g'ridan to'g'ri so'zma-so'z tarjima emas, balki shu asarga o'xshash boshqa tildagi tamoman boshqa uslub, syujetdagi asar hisoblanadi. Tarjima asarlari go'yoki ta'sirlanish natijasida nazira ko'rinishidagi yaxlit o'zbek (turkiy) tilida yaratilgan "turkiy guliston"lardir. Shu munosabat bilan olim tadqiqotda bir qator shoir va tarjimon-shoirlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar beradi. Masalan, Mag'furxo'ja Xorazmiy va uning "Vomuq va Azro" (Uzro bo'lsa kerak), IX asrda yashagan Xiromiy va uning "Chor



darvesh" asarlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Shoir hayoti va ijodi, ushbu shoirlar zikr etilgan taskiralar, ulardagi bir-biriga muvofiq va muvofiq bo'lmagan qarashlarga asosli yondashadi, asardan bir nechta sahifalar syujeti hikoya qilinadi. xarakterlarga ta'rif va tavsif beriladi, tahlilga tortiladi, davr muhitiga mos ravishda munosabat bildiriladi. Kitobxon nafaqat nazariy bilimlarga, balki tadqiqotdagi parchalardan badiiy-estetik zavq ham oladi. Shu nuqtai nazardan "Adabiy-tanqidiy asarlarni badiiy asar kabi o'qishni xohlardim" (V.Belinskiy) deganda adabiyotshunos-tanqidchi haq edi.

Shu o'rinda aytish kerakki, mumtoz adabiyot tarixida hozirga qadar nazira uslubi bahsli bir qarash sifatida tahlil qilinadi. Olimning bu boradagi qarashlari nihoyatda e'tiborlidir. Chunonchi, adabiyotshunos bir o'rinda "XIV-XIX asrlar davomida yaratilgan badiiy tarjima asarlarida, xususan, epik poeziya janridagi kitoblarda Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan nazira yozish uslubining ta'siri ko'zga tashlanadi. Nazira yozish uslubi esa ilgari yaratilgan asarlar formasi, qahramonlar nomi, ba'zai esa syujet liniyasii saqlagan holda konkret tarixiy davr talablari, yozuvchi dunyoqarashi asosida yangicha talqin qilish, ya'ni traditsion mavzuda yangi, original asar ijod qilishni taqozo qiladi. Bunga Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiylarning «Xamsa»larini misol qilib ko'rsatish mumkin"⁷, - deydi. Bu nihoyatda muhim bahodir. Xuddi shunday tarjima sohasidagi ijodiy mehnat shoirlardan ijodkorlikni talab etadi. Boshqa tildagi asarlarning ruhi, uslubi, syujeti, qahramonlari juz'iy o'zgartirishlar bilan saqlashga harakat qilinsa-da, o'z davri mafkurasi, millati urf-odatlarini, o'ziga xosliklari asosida original asarni to'ldiradi yoki qisqartirib o'z xalqiga moslaydi. Bu orqali mavjud badiiy asar qadimiyligidan, eskirgan tushuncha va so'zlardan xalos bo'ladi, zamonaviyligi ortadi, degan muhim fikr kelib chiqadi. Bu xususiyatlar Xiromiy asarlarida ham, u tomonidan yaratilgan tarjima asarlarga ham xos ekanligi tadqiqotda o'z ifodasini topadi. Xiromiyning "To'tinoma" asari qoliplash usulida yozilgan asar bo'lib, uniig asosiy hikoyasi maymun, xo'jasta va to'tilar bilan bog'liq bo'lib, to'ti tilidai keltirilgan hikoyalar shu asosiy hikoya ichiga kiradi va uning mazmuni quyidagicha: "Maymun nomli savdogar xotinini to'tilar bilai qoldirib, safarga chiqib ketadi. U uzoq ketgach xotini — Xo'jasta zerikib tomga chiqadi va ko'chadan o'tayotgan yigitni ko'rib qoladi. Yigit Xo'jasta visoliga erishish maqsadida uning uyiga bir dallolni yuboradi. Shunda Xo'jasta erining gapiga amal qilib, avval moda to'tidan yigit oldiga borish to'g'risida maslahat so'raydi. Moda to'ti Xo'jastani koyib, eringga vafosizlik qilma degach, uni o'ldiradi. Moda to'tining taqdirini ko'rgai erkak to'ti Xo'jastaga "bor, yoring bilan bo'l, agar biror gap bo'lib qolsa, men seni "Savdogar va To'ti" hikoyasida bo'lgani kabi himoya qilaman" deydi. Shundan so'ng Xo'jasta hikoyaga qiziqib, bora olmaydi. Bunday holat 52 kecha davom etadi. So'ng Maymun kelib, voqeani eshitgach, Xo'jastadan voz kechib, To'tini ozod qiladi va o'z umrini tanholikda o'tkazadi"⁸. Ko'rinadiki, asosiy hikoya oddiy syujet chizig'iga ega bo'lib, uning mazmuni ham maishiy xarakterdadir. Unda faqat To'ti va Xo'jastani ko'rish mumkin: to'ti qissa aytuvchi, Xo'jasta eshituvchi. Ular aytilayotgan hikoyalardagi qahramonlar hayotiga aralashmaydi, ularning xarakterini o'zgartirmaydi. Xo'jasta obrazidagi bu psixologik o'zgarish va uning Maymunga sodiq qolishi kabi juda nozik masalalar safardan qaytib kelgai Maymunni qiziqitirmaydi. Aksincha u Xo'jasta xatosini mahkam ushlab, undan voz kechadi. Asarning bizga ma'lum yakuni masal-poemaning g'oyaviy xotimasiga, ya'ni xarakter mantig'iga muvofiq

⁷ Ўша асар... 99-б.

⁸ Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Т. Фан. 1974. 113-б.



kelmaydi. Chunki muallif ham, voqealar rivoji ham Xo'jasta xarakteridagi o'zgarishni – yomon fikrdan qaytishini tasvirlash bilan uni oqlay boshlaydi, o'z panohiga olganday bo'ladi. Kitobxonga shunday taassurot uyg'otadi. Bunday holatda, Xiromiy asariniig yakuni "Shukasaptati" ("To'tinoma" asl hindcha nomi) va Abdula'lom Fayzxon o'g'lining "To'tinoma kitobi" kabi bo'lishi kerak edi, ya'ni Maymun va Xo'jasta asar so'ngida baxtli hayot kechirib, murod maqsadlariga yetishlari kerak edi. Biz Xiromiyda buning aksini ko'ramiz. Uning sababini adabiyotshunos shunday asoslaydi: "Bu o'rinda shoir o'zi tasvirlayotgan voqealar va qahramonlar xarakterining mantig'iga qarama-qarshi tarzda asarini yakunlagan. Buning asosiy sabablaridan biri, Xiromiy tayangan nusxalardagi finalning shunday bo'lganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xiromiy yashagan muhit ta'siridir. Xiromiy yashagan davrda Buxoro xonligida diniy reaksiya va jaholat shunchalik kuchaygan ediki, har bir erkin va to'g'ri fikrli odam ta'qib ostiga olinar va u qiyin ahvolda yashar edi. Bu davrda, xususan, xotin-qizlarga nisbatan bo'lgan qarash nihoyat zararli edi, chunki ular doim tahqir etilar, faqat ayshu ishrat vositasi sifatida qaralar edi". Ko'rinadiki, har bir asar mazmuni, g'oyasi, badiiy qimmati masalasida Boturxon Valixo'jaevning o'z fikri, qarashlari bor. Davr ijtimoiy muhitini yaxshi biladi. Badiiy asarga yondashganda zamon va makon masalalarini birinchi o'rinda olib qaraydi. Bu bilan shoir, yozuvchilarning jamiyatdagi g'oyaviy kurashlardan chetda turmaganligini, doim xalq tomonida turib, mavjud tuzum kirdikorlarini ochib tashlagani, ularga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lganligini ham anglab yetamiz. Haqiqiy olim qudrati zamon bilan hamnafaslikda ham ko'rinadi. Monografiyaning so'ngi bobida o'zbek adabiyotidagi "Yusuf va Zulayho" mavzusidagi asarlarning badiiy-estetik qimmati, Olim Devonaning "Ravzai asror" poemasi va uning yaratilishi, muallifning shaxsini aniqlashga bo'lgan ilmiy izlanishlar o'z tajassumini topgan. Adabiyotshunos fikricha, Olim Devonaning "Ravzai asror"ida "Yusuf va Zulayho" haqida temaning ishlanishi va shoirning shu mavzuga munosabati mazkur asarning ilg'or g'oyaviy pozitsiyadai turib yaratilganligidan dalolat beradi. Olim Devonaning poemasida ham Zulayhoning Yusuf visoliga erishish yo'lidagp sarguzashtlari, Yusufning turli-tuman hodisalarga duch kelishi kabi an'anaviy fabula tasvirlanganligi, ammo muhim jihati, muallif mazkur mavzuni yoritishda diniy an'analar qobig'idan chetga chiqib bu asarga ijtimoiylik tusini berganligini alohida qayd etadi. "Muallifning o'zi e'tirof etishicha, mazkur asar ulug' shoir Abdurahmoi Jomiy poemasi va XVII asr fors-tojik adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili Nozim Hiraviyning "Yusuf va Zulayxo"si ta'sirida yuzaga kelgan. Olim Devonaning xizmati shundaki, u juda uzoq tarixga ega bo'lib, ko'pgina shoirlar tomonidan turli tillarda qayta ishlangan Yusuf va Zulayho haqidagi qissani o'ziga xos tarzda qabul qildi va shu asosda poema yarata oldi". Olim Devona bu an'anaviy mavzuga murojaat etib, davlatni adolatli boshqarish, davlat apparatiga odil kishilarni qo'yish kabi ijtimoiy masalarni "Yusuf va Zulayho" qissasi orqali ifoda etishga intilganligi, muallif tomonidan o'rta qo'yilgai ijtimoiy masalalar XIX asr ikkinchi yarmidagi O'rta Osiyo, xususan, Turkiston sharoiti uchun yangilik bo'lmasa-da, katta hududni egallab turgan Buxoro xonligi uchun ularning muhim ahamiyati bor edi, kabi e'tiroflari monografiyani zamon bilan bog'lay oladi.

Xullas, mamlakatimiz va dunyo miqyosida e'tirof etilgan taniqli olim Boturxon Valixo'jaevning mazkur monografiyasida doston janri evolyusiyasi sinchkovlik bilan o'rganilgan. Janr tarixi, rivoji, taraqqiyoti hayotiy misollarda isbotlab berilgan. Fanda



mualliflari noma'lum asarlar yoki bir asarni ikki va undan ortiq mualliflarga nisbat berishlar, tarjima asarlar va ularning originali va o'zlashtirilganligi sabablari ilmiy asosda tekshirilgani bilan tadqiqot muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik. 2 - jild. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1992. – 246 b.
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi-us sanoyi'. – Toshkent: “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1981. – 400 b.
3. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 191 b.
4. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1974 yil, - 234 b.
5. Muhiddinov M.Q. Nurli qalblar gulshani. – Toshkent: Fan, 2007. – 168 b.
6. Xos Xojib Yusuf. Qutadg'u bilig. - Toshkent: Fan, 1971. – 964 b.
7. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Eng qadimgi davrdan XIV asrgacha). Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev. – Toshkent: Fan, 2003. – 332 b.